

Urganch va Nukusga parvozlar ko'payadi

2020 8 Sentabr

"Uzbekistan Airways" aviakompaniyasi Urganch va Nukusga parvozlar sonini oshirmoqda.

14-sentyabrdan boshlab Urganchga qatnovlar har kuni amalga oshiriladi, Nukusga parvozlar soni haftasiga 3 tadan 4 taga ortadi.

Parvozlarni jadvali bilan aviakompaniyaning rasmiy saytida tanishishingiz mumkin.

Mazkur qatnovlarga aviachiptalarni kompaniya veb-sayti, mobil ilova, shuningdek, "Uzbekistan Airways" AJning eng yaqin savdo ofislaridan yoki O'zbekiston Respublikasidagi savdo agentlari orqali sotib olishingiz mumkin.

Sizni yana aviakompaniyamiz qatnovlarida ko'rishdan mamnunmiz.

Sizga yoqimli va xavfsiz parvoz tilaymiz!